

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 19 (67236)
2019-yil 13-may

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

ULUG'OBOD MAHALLASIDAGI MAKTAB

3-bet



USHBU SONDA:



ATROF
GULLARGA
TO'LSIN

2-bet



FILNING
«O'G'IRLIGI» MI
YOKI
«OG'IRLIGI?!»
Darsliklardagi ayrim
xatolar xususida

3-bet

SHAXDAM
QADAMLAR
SEHRI



7-bet



«ONA JONIM TABIAT» tanloviga

**Dadamning xizmati yuzasidan ikki yil
Yaponiya davlatida yashaganmiz. Nagoya
shahrida joylashgan Xiroji shogakko
maktabiga borgan ilk kunlarimda ustozim
menga har bir o'quvchining portfelida sellofanga o'ralgan
kichkina supurgi va xokandoz bo'lishi kerakligini aytganida,
hayron qolgandim.**

ATROF GULLARGA TO'LSIN

Shunda ustozimiz uydan maktabga, maktabdan uyga ketayotganimizda yo'limizda uchragan konfet qog'ozlari, sigaret qoldiqlarini supurib, chiqindilarni yo'l chetidagi axlat qutisiga tashlab ketishimiz lozimligini, chiqindilar uchun ham hammamiz birdek mas'ul bo'lishimiz kerakligini tushuntirgan edilar.

Maktabdagi barcha tozalash ishlarini ham o'zimiz bajarar edik. Maktab oshxonasidan ovqatlarni sinfga olib kelish, ularni o'quvchilarga tarqatish, bo'shagan idishlarni yana oshxonaga olib borib berish kabi vazifalarni avbatchilik asosida bajarilardi. Tushlik vaqti tugagach, barchamiz birgalikda sinfimizni, yo'lakchamizni va o'zimiz foydalanadigan hojatxonani tozalab, shundan keyingina yana darslarni boshlardik.

Bir kuni ekologiya darsida ustozimiz bizni ichimlik suvi bizgacha qanday yetib kelishini ko'rsatish maqsadida Nagoya shahri chekkasidagi korxonaga olib bordilar. Ichkariga kirayotganimizda, barchamizdan termoslarimizdagi suvni to'kib tashlashni so'rashdi. Daryo suvining ichimlik suvi darajasiga yetguniga qadar bo'ladigan barcha jarayonlar bilan tanishganimizdan so'nggina suv ichishga ruxsat berishlarini aytishdi. O'quv mashg'ulotimiz davomida suvni filtrlash bo'yicha 18 ta stansiyaning ishi bilan tanishdik. Juda horib, chanqab, oxirgi jarayon tugagandan keyin toza ichimlik suvini ichganimizda, har birimiz bir qultum suvni ichimlik suvi bo'lib kranlarimizdan kelishi uchun qancha mashaqqatli mehnat va resurslar sarflanishini tushunib yetdik. Asosiysi, ichimlik suvini qadrlashni o'rgandik.

Biz – O'zbekistondagi barcha

maktab o'quvchilari ham o'zimiz yashab turgan atrof-muhitning tozaligi, obodligi uchun faqat olovrang nimcha kiygan onaxonlarimiz emas, balki shu mahallada yashaydigan, shu ko'chadan yuradigan barcha fuqaro mas'ul ekanligimizni anglashimiz lozim.

Men o'zimiz yashab turgan uyimiz yo'lgi va zinalarida o'ndan ortiq tuvaklarda gullar ekib parvarishlayapman. Avvaliga dugonalarim hayron bo'lishdi: «Gullaringni nega yo'lak va zinaga olib chiqding, o'g'irlab ketishadi-ku?!» deyishdi. «Mahallamizda qo'shnilarimiz bilan ahil va inoqimiz, gullarimni hech kim olib ketmaydi, ularni uzib ham ketishmaydi», dedim ularga javoban. Endi dugonalarim ham o'z uylari

yo'lagida tuvaklarda gullar parvarish qilishayapti. Maqsadimiz, o'zimiz yashab turgan joyda toza havo bo'lsin, atrofdagilar gullarimiz chiroyidan va toza havodan bahramand bo'lishsin.

Agar barchamiz o'z mahallamiz, ko'chamiz, maktabimiz tozaligi uchun harakat qilsak, yurtimiz ekologiyasi sofligiga, o'zimiz nafas olayotgan havoning tozaligiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Asosiysi, tabiat in'omi hisoblangan toza havo, toza ichimlik suvi kabi ne'matlarni qadriga yetib, bizdan keyingi avlodlarga sofligicha yetkazishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

**Ilymona ABULHASAN,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 102-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi**

YANA BIR IMKON ESHIGI

Dilorom ZUFAROVA, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, «Mehnat Shuhrati» ordeni sohibasi:

– Kuni kecha Prezidentimiz tomonidan «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaror imzolandi.

Ushbu qaror yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovru'g'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash uchun kengroq imkonlar yaratadi.



2019–2020-o'quv yilidan boshlab asosiy olimpiadalarning respublika bosqichida 1–3-o'rinlarni egallagan ishtirokchilarga ixtisoslik fani bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat taqdim qilinadi.

Mazkur Qarorga binoan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimining belgilangan shtatlar soni doirasida ushbu vazirlik tuzilmasida fan olimpiadalar bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti tashkil etiladi. Departamentning asosiy vazifasi iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, ularning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini ta'minlash, yuqori natijalarni qayd etgan o'quvchilarning kelgusidagi faoliyatini monitoring qilib borish va qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib, fan olimpiadalariga qatnashuvchi o'quvchilarga aniq bir fan sohasida o'z bilimlarini mustahkamlab borish imkonini beradi. Barcha bosqichdagi olimpiada natijalari, shu jumladan, ishtirokchilar to'g'risida ma'lumot, ularning yozma ishlari to'liq axborot tizimiga kiritilishi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb-saytida e'lon qilinishi o'quvchilarning o'z bilimlarini haqqoniy, shaffof baholanayotganidan xabardor etadi. Shuningdek, xalqaro olimpiadalar g'oliblari va ularning o'qituvchilari, asosiy olimpiadalar respublika bosqichi g'oliblarining o'qituvchilari pul mukofotlari bilan taqdirlanishi, shuningdek, respublika bosqichi g'oliblari va o'qituvchilariga ustamalar belgilanishi ham ko'zda tutilgan.

2019–2020-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining 4–11-sinf o'quvchilari uchun har chorakda onlayn tarzda olimpiadalar tashkil qilish orqali iqtidorli o'quvchilar zaxirasi shakllantirib boriladi. Zaxiraga kiritilgan yoshlar uchun Xalq ta'limi vazirligi veb-sayti orqali har oyda chuqurlashtirilgan nazorat materiallari, shu jumladan, test, yozma insholar uchun masalalar yetkazib berilishi ham belgilab qo'yilganligi «Ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislar zaxirasini shakllanishiga imkon yaratadi.

O'quvchilar bilimini sarhisob qiluvchi fan olimpiadalar o'quvchilar uchun ham ularning ustozlari uchun ham imkoniyatlar eshigini keng ochdi. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan mazkur chora-tadbirlar biz o'qituvchilarni behad quvontirdi. Shuning barobarida zimmamizdagi mas'uliyat zalvorini yanada oshirdi. Endi o'z ustimizda yanada ko'proq ishlashimiz, o'quvchilarimizning bilimdon, dono bo'lib kamol topishlari, dunyodagi barcha bilimli tengdoshlari bilan bemaol bellasha olishlari uchun bor bilim, tajriba va ko'nikmalarimizni sarflashimiz lozim. Zero, O'zbekistonimizning porloq kelajagi, nurli istiqboli biz ta'lim-tarbiya berayotgan yoshlar qo'lidadir.



FILNING «O'G'IRLIGI» MI YOKI «OG'IRLIGI?!»

Darsliklardagi ayrim xatolar xususida

Tabiatshunoslik

O'txo'r hayvonlar

Odatda, o'simlik bilan oziqlanadigan hayvonlar o'txo'r hayvonlar deb ataladi. Fil, tuya, jirafa, azbura, boq'u, kiyik va jayron kabi yirik hayvonlar o'txo'r hisoblanadi. Fil — Yer yuzi qurosiligidagi eng katta hayvon bo'lib, o'g'irligi 6 tonnaga, balandligi esa 4 metrga yetadi. Uning burni — xartumi hid bilish a'zosi bo'ligina qolmay, ovqatlanish, karnay kabi ovoz chiqarish, yuk ko'tarish vazifalarini ham bajaradi. Filar dashi va o'rmonlarda o'zlarni, buta hamda daraxtlarning bargi, mevasi va ildizlarini yeb hayot

Bir kuni 3-sinfda o'qiydigan singlim «Tabiatshunoslik» fani darsligini qo'limga tutqazdi. U darslikning 85-betini ochib ko'rsatar ekan, «Opa, siz ham bir o'qib ko'ring-chi, shu so'z noto'g'ri yozilganmi?» dedi. Men o'sha gapni diqqat bilan o'qiy boshladim. Unda «Filning o'g'irligi 6 tonna», deb yozilgan edi. Anglaganingizdek, bu o'rinda «og'irlik» so'zining o'miga «o'g'irlik» so'zi yozilgan. Bu so'zdagi xatolikni singlimga tushuntirdim. U esa ajablanib, «Kitoblarda ham imlo xatolari bo'lar ekan-da?» dedi...

Bu savol aslida, meni ham o'ylantiradi.

Chunki yuqori sinflar uchun «Diktantlar

to'plami»da ham ba'zi xatoliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan, 9-sinflar uchun berilgan «Boburning shaxsiy fazilatlarini» deb nomlangan diktant matnida «Bemorni daryo bilan Agraga olib kelishadi» jumlasini bor. Menimcha, bu o'rinda «bilan» bog'lovchisining o'rniga «orqali» ko'makchisi yozilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mahbuba ESHDAVLATOVA,
Samarqand viloyati, Pstdarg'om tumanidagi
40-umumta'lim maktabining 10-«A»
sinf o'quvchisi

Ulug'obod mahallasida joylashgan mazkur bilim dargohi o'quvchilari bilan yaqindan tanishish jarayonida shuni angladikki, mahallaning nomiga monand ularning orzulari ulug', ko'ngillari obod ekan. Ana shunday o'quvchilarga barcha sharoitlarni muhayyo qilishga harakat qilayotgan maktab rahbari Malika O'zbekistonovna maqsadimizni bilganlaridan so'ng bizni maktab kutubxonasi tomon boshladilar. Ikkinchi qavatga ko'tarilar ekanmiz, yo'l-yo'lakay bilim maskani-yu uning bilimdonlari haqida suhbatlashib bordik. Yaqinda ushbu maktabga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri tashrif buyurganini ham opadan bilib oldik. Malika opa shu maktabning sobiq o'quvchisi ekanligini aytganida, yanada quvondik.

Opa a'lochi va jamoatchi o'quvchilari haqida to'lib-toshib gapirar ekan, ularning «Bilimlar bellashuvi», fan olimpiadalari va sport musobaqalarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelishayotganini alohida ta'kidladi. Jumladan, 7-sinf o'quvchisi Gulnora Raimberdiyeva «Bilimlar bellashuvi»ning shahar bosqichida faxrli o'rinni, Erkinbek Hasanov fan olimpiadasida «Iqtisodiy bilim asoslari» fani bo'yicha viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgani, Islombek Anvarbekov «Mangu o'chmas siymolar» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida oliy, viloyatda 2-o'rinni, Nilufar Murtazoyeva fanlar olimpiadasining shahar bosqichida faxrli o'ringa munosib ko'rilganini eshitib, biz ham ko'nglimizda faxr tuyg'usini tuydik. Ushbu maktab o'quvchilarining aksariyati maktabdoshlari Mohidil Qayumjonova kabi «Eng yaxshi o'qituvchi» bo'lishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishganini eshitib, o'qituvchining obro'si yanada yuksalib borayotganidan quvondik.

Maktab o'qituvchilaridan Gulnoza Nazarova, Shahnoza Ergasheva, Marg'uba Yusufova, Zulfiya Habirova, Zaynab Samadova, Xolida Shodmonova, Shoira Zaripova, Muqaddas Eraliyeva kabi ustozlarni o'quvchilar alohida tilga olishdi. Ushbu ta'lim maskanida fidoyi, o'z kasbining bilimdoni bo'lgan mehridaryo ustozlar ko'pligiga aslo shubha qilmadik.

ULUG'OBOD MAHALLASIDAGI MAKTAB



Hudud noziri Bobur Yaxshiboyev o'quvchilar bilan suhbat o'tkazayotganini eshitdig-u, yoshlar yetakchisi boshchiligidan o'sha tomon oshiqdiki. Hudud noziri o'quvchilarning barcha qiziqirgan savollariga aniq va lo'nda qilib javob berar ekan, o'z qo'l telefoni raqamini

Kutubxonaga kirganimizda, tanaffus vaqti edi. Kutubxonachi opa Zohida Yo'ldoshevaning qo'li qo'lga tegmaydi. Daniel Deffoning «Robinzon Kruzo» kitobini o'qib bo'lib, topshirish uchun navbatda turgan o'quvchini suhbatga chorladik: — Men 8-«E» sinf o'quvchisi Jaloliddin O'ktamov bo'laman. 611 betdan iborat bo'lgan bu kitobni 7 kunda o'qib chiqdim. Kinosini ham ko'rganman, ammo kitobi yanada qiziqarli ekan.

Albatta, kitob o'qish juda yoqimli va maroqli. Buni anglab yetgan Jaloliddinga havasimiz keldi. Yosh kitobxon kelgusida harbiy bo'lishni orzu qilgan ekan, uning ezgu niyatlari ijobat bo'lishini tilab, bu ajoyib onlarni suratga muhrladik.



o'quvchilarga berishni ham unutmadi.

— Maktabda har payshanba jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish kuni. Ammo hudud noziri maktabga tez-tez kelib turadi. Mana, bugun dushanba bo'lishiga qaramay, o'quvchilar bilan dildan suhbatlashyapti. Shu sababmi, bilim maskanimizda tarbiyasi og'ir o'quvchilar yo'q, — deydi faxrlanib yoshlar yetakchisi Gulnoza Nazarova.

Feruza SOYIBJON qizi

ORZULARI BIR OLAM

Aziz bolajonlar, o'quv yilining yakunlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Hademay barchangiz orziqib kutgan yozgi ta'til boshlanadi. Biz yozni ham siz bilan hamrohlikda o'tkazish istagidamiz. Shunday ezgu niyatda sizning qiziqishlaringiz-u talablaringizdan kelib chiqqan holda tahririyatimiz a'zolari izlanishdalar. Bugun esa sizlarga Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'quvchilarining mazkur o'quv yilida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari haqida hikoya qilamiz.

BELLASHUVLARDA HAMISHA G'OLIB

O'qituvchilari va yetakchining sa'y-harakatlari samarasi o'laroq maktab sardori «Eng namunali sardor» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida faxrli o'rinni egalladi. «Qizil xoch» va «Qizil Yarimoy jamiyati» tomonidan o'tkazilgan maktablararo tanlovda bu maktab o'quvchilariga 2-o'rin nasib etdi. Fan olimpiadasida qoraqalpoq tili bo'yicha qatnashgan 10-«A» sinf o'quvchisi Ma'mura O'razbayeva respublika bosqichiga qadar ishtirok etdi. 2016-2017- o'quv yilidan buyon maktabning chaqqon, bilimdon o'quvchilaridan tashkil topgan jamoa «Yosh qutqaruvchilar» hamda



Dilnoza JUMABAYEVA

«Yashil chiroq»

musobaqalarining respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda. Ijodkor o'quvchi Sardorbek Kenjabayev o'tgan yili Ibroym Yusupov nomidagi maktab-internatiga o'qishga qabul qilindi. Uning izdoshi 5-«B» sinf o'quvchisi Dilnoza Jumabayevaning esa Sardorbek KENJABAYEV ilk she'riy kitobchasi nashrdan chiqdi.



AKSIYADA BIZ HAM FAOLMIZ

Yurtimiz bo'ylab «Kitob ulash» aksiyasi hamon davom etmoqda. Bu an'anadan chetda qolmagan maktabning sobiq bitiruvchilari ham faollikni qo'ldan boy bermayaptilar. Kutubxonachi Muborak opa Sapayevaning ishi biroq ko'paygan bo'lsa-da, ammo u bundan mamnun. «Maktabimiz kutubxonasiga kitob sovg'a qilamiz» aksiyasi doirasida kutubxona fondi yanada boyidi. Yoshlar yetakchisi Sherali Jumamurodov yoshlarni birlashtirib, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga ko'maklashmoqda. Uning tashabbusi bilan yoshlar o'rtasida mini futbol musobaqasi hamda «Mahallamiz malikasi» tanlovi o'tkazilib, unda iqtidorli o'g'il-qizlar o'zaro bellashdilar. O'tgan yili «2018-yilning eng tashabbuskor yetakchisi»



Sherali JUMAMURODOV, yoshlar yetakchisi

nominatsiyasiga munosib ko'rilgani Sheralini yanada ruhlantirib yubordi.

«Men katta bo'lsam, harbiy bo'laman!», «Menga o'qituvchilik kasbi yoqadi», «Ulg'aygach, arxitektor bo'laman, eng chiroyli, eng zamonaviy uylarning chizmasini chizib, ularni o'z Vatanimda barpo qilaman... Bular bilimdon, chaqqon, g'ayratli qoraqalpoq yoshlarining kelajakdagi orzulari. Biz ham beg'ubor qalblarida kurtak otayotgan orzular ijobatiga tilakdoshmiz.



10-«A» sinf o'quvchisi Ma'mura O'RAZBAYEVA fan olimpiadasida qoraqalpoq tili fanidan respublika bosqichida qatnashdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Buni qarangi, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 212-umumta'lim maktabidagi barcha o'g'il bolalar ta'lim dargohi direktori - zaxiradagi podpolkovnik Alisher Sharipovga o'xshashni orzu qilishar ekan.



DIREKTORIMIZ PODPOLKOVNIK, — deydi faxr bilan o'quvchilar



Shuning uchun bo'lsa kerak, mazkur maskanda o'tkazilgan «Xotira aziz — qadr muqaddas» nomli tadbirida yana o'g'il bolalar ham faol ishtirok etdi. Bayramni tashkillashtirishga bosh bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Rustam Zokirov ham harbiy emasma, o'quvchilarning har bir chiqishlari noan'anaviy bo'ldi. Vatani bayrog'ini hilpiratib sahnaga chiqqan o'quvchilar harbiy qo'shiqlarni jo'shqinlik bilan ijro etishdi. Yuqori sinf o'quvchilarining harbiy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatgan mashqlarini o'lqishlamagan tomoshabin qolmadi. Bundan tashqari, ularning harbiy vatanparvarlik mavzusida ishlagan deyorij gazetalarini, chizgan rasmlari ham barchaning e'tiborini tortdi. Ularda kimdir harbiy bolakayni tasvirlagan bo'lsa, yana ayrim tengdoshlaringiz Xotira maydoni-yu «Motamsaro ona» haykalini aks ettirgan. Shu kuni mazkur maktabga tashrif buyurgan mehmon borki, ustozlarga «Maktabingizda harbiy sinflar bo'lsa kerak-a?» deya savolga tutishdi. Ammo, bilishimizcha, bu dargohda alohida ixtisoslashtirilgan sinflar yo'q ekan. Shunchaki yuqorida aytganimizday o'quvchilar ona Vatanni sevish, kelajakda uni ardoqlashni ustozlaridan o'rganishgan, xolos.

O'z muxbirimiz

AJDODLARNI E'ZOZLASH — MUQADDAS QADRIYAT

Xalq, el-yurt manfaati yo'lida jonini fido qiluvchi, ezgu niyatlarni amalga oshirishda fidoyilik ko'rsatgan insonlarni yodga olish, ularni qadrlab, e'zozlash har birimizning burchimizdir. Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 236-umumta'lim maktabining 2-«A» sinfida o'tkazilgan



tadbirida ham e'tibor va g'amxo'rlik insoniy burch ekanligi yana bir bor o'quvchilarga tushuntirib berildi. — Bizning tinch yashashimiz uchun o'z hissasini qo'shgan, Vatanimiz mustaqilligi uchun jonini, kuch-quvvatini ayamagan har bir faxriy, har bir kishi xotirasini doimo yodda saqlashimiz, ularning Vatani uchun qilgan xizmatlaridan o'rnak olishimiz kerakligini ustozimiz Matluba Musurmonova so'zlab berdilar, — deydi 2-«A» sinf o'quvchisi Mubina Bahodirova. — Tadbirida she'rlar yod olib, harbiy qo'shiq va raqslar ijro etganimiz faxriylarga juda manzur bo'ldi.



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabining 4-«F» sinf o'quvchilari ustoz Nargiza Ibodxo'jayeva boshchiligidagi «Xotira mangu — qadr abadiy» mavzusida katta bayram tadbirini o'tkazishdi. Tadbirida urush faxriylari, mahalla faollari qatnashdilar. O'quvchilar tomonidan tinchlikni, do'stlikni tarannum etuvchi she'rlar yod olindi. Qo'shiq va raqslar barchaga bayramona kayfiyat baxsh etdi. Tadbir yakunida faxriy mehmonlarga esdalik sovg'alari ulashildi.

Bugun

Sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz - poytaxtimizning Yashnobod tumani dagi 206-umumta'lim maktabi o'quvchilarining qiziqmagan mashg'uloti yo'q ekan. O'quv dargohidagi 5-«A» sinf o'quvchisi Umid Abdurazzoqov kechagina bo'lib o'tgan tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etgani haqida so'zlab berdi.

5 TASHABBUSGA BAHO

ruhi ishtirokchilari Sardor Do'zimov, Javohir Izatillayev, Dovud Abdurashidov she'r-xonlikni boshlab berishdi.

yaratish harakatida bo'lishsa, ne ajab?! Sport yo'nalishida o'z mahoratini ko'rsatish-

lishda «Yosh hunarmandlar» bizni qoyil qoldiradigan ko'rinadi. Bir-biridan bejirim buyumlar yasagan 7-«B» sinf o'quvchisi Saidahmad Husanov hunarmandchilik sirlarini ustoz Muhabbat Azizovadan o'rganayotgan ekan.



Tadbir so'ngida 3-«A» sinfidagi yosh gazetxonlarimiz «Biz ham «Vatan – muqaddas!» nomli ochiq dars tayyorladik», deya bizni sinfxonalarga chorlashdi. Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ustoz Dilorom Boymatova tashkillashtirgan bu bellashuvda «Hech kimni

unutmaymiz» nomli guruh ishtirokchilaridan Muxlisa Qo'chqorova she'r, Zuhra A'zamjonova Amir Temur o'gitlaridan aytib berdi. «Ajodlarimiz merosi» guruhidagi Charos Nazarova To'maris haqida ma'lumot berdi. «Vatan – buyuk» gu-

Mushoira qizib, bolajonlar tayyorlagan bayram yakuniga yetar ekan, Sardor Abdurahmonov sinfdoshlarini ona Vatanga munosib bo'lmoq uchun a'lo o'qishga chorladi.

Sayyora QODIROVA



Avtomobil maketini yasayotgan yosh shovvozlar esa ertaga tumanda o'tkaziladigan «Yashil chiroq» tanloviga hozirlik ko'rishayotgan ekan. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarga bu tengdoshlaringiz faollik bilan javob berishmoqda. Bunda esa ularga shart-sharoit yaratib berayotgan maktab direktori Mashrab aka Mirzayev, yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilnavoz Rahmatova va Sanobar Ahmedovaning xizmatlari katta, albatta.

Birinchi tashabbusga javoban maktabning raqqosa qizlari hozirlab qo'ygan raqсни tomosha qilib, zavqlandik. Yosh musavvirlar maktab hovlisida ijod qilish bilan band. Ular ustozlari Zulfiya Sultonova boshchiligida yangi asarlar

ga intilayotgan voleybolchi-yu yosh dasturchilarga berildi. Ular ham ustozlari Nilufar Samandarovadan o'rganganlarini munosib ko'rsata olishdi. Ayniqsa, to'rtinchi yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bizni behad quvontirdi. Zero, bu maskanda nafaqat kitobxon o'quvchilar, balki bizning muxlislarimizga aylangan gazetxon do'stlaringiz ham talaygina. Kutubxonachi opa Navbahor Qodirovaning aytishicha, har yili maktabda sinflararo «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi o'tkazilar, g'olib sinf o'quvchilari maktab ma'muriyati tomonidan sayohatga olib chiqilar ekan. Bundan tashqari, «Qiziqarli matematika», «Inglizcha gaplashamiz» kabi to'garaklar faoliyati ham maqtashga arzigulik. Iye, so'nggi yo'na-




CLASSROOM RULES!!!

Lesson 19


SAND AND STONE (Reading time)



1. Come to class on time.
2. Attend to personal needs (go to the toilet, drink water, eat) before coming to class.
3. Sit down unless you have permission to get up.
4. Come to class prepared with all materials and homework complete.



5. Raise your hand and talk only if permitted.
6. Listen quietly while others are speaking.
7. Be nice and polite in everything you do.



the blackboard, etc.

8. Clean up – your desks,
9. Follow the teacher's instructions immediately.
10. Keep your hands and feet to yourself.



John and James were best friends. They fought for many reasons, but never gave up their friendship. They went in search of a job and visited many places to earn some money. They passed through various places, villages, towns, forests, and beaches. They supported each other throughout their journey.

One day, they reached a desert. They had a very little food and water. John said that they should save the food and water for later use. However, James disagreed. He wanted to drink water, as he was very thirsty. They quarrelled with each other for water. John slapped James, and they walked in silence. James wrote on the sand, «My best friend slapped me!»

Finally, they reached an oasis. They were very happy, and had a lot of fun in the water. While they both were bathing, James was a bit careless and began to drown. John rushed to him and saved him.

James hugged his friend and thanked him. They had a little nap and decided to leave the place. When they were about to leave, James carved something on the rock.

It was «My best friend saved my life!»

He said to John, «When you slapped me, I recorded it on sand. The wind would have blown it away by now. However, when you saved my life, I recorded it on rock. It will remain there forever».

We have to forget the bad things and cherish the good things done to us.

Nargiza PULATOVA,

The teacher of school № 274 in Yunusabad district, Tashkent region

Xurram RAYIMOV

**BOLANGIZNI
SIZLAB
CHAQIRING**

Bolangizga shirin so'zlang,
Har so'zidan mazmun izlang.
Sen deydihdan ko'ra yaxshiroq,
Eng ma'quli ularni sizlang.

Tarbiyani o'zdan boshlangiz,
Ham yuz-u qosh, ko'zdan boshlangiz.
Sezgirligin unutilib qo'ymay,
Hushyor turib nazar tashlangiz.

Qovog'ingiz bekorga osmang,
Yurganida yo'lini to'smang.
Fikrlashni o'rgansin ular,
Xato, deya so'zini kesmang.

Bolalarga yaltoqlanmang hech,
Yomon deya kaltaklamang hech.
Faqat yaxshi tomonga boshlab,
Yomonlikka yetaklamang hech.

Izlang nuqul qaynoq so'zlardan,
So'zlang faqat qaymoq so'zlardan.
Mehringizni ayamang aslo,
Zinhor-zinhor o'g'il, qizlardan.

Bolalarni kichik deb bilmang,
Tillarini chuchuk deb bilmang.
Qo'pollikka yo'l qo'yib goho,
Bilmading deb ustidan kulmang.

Mensimaslik bu yomon odat,
Chekinadi undan ko'p omad.
Tarbiyada qo'llamang uni,
Egilmasdan o'ssin sarv qomat.

Tinglagancha bizlardan ertak,
Sehrlanib yozsinlar kurtak.
Kattalarning qo'lida hech vaqt,
Ular zinhor bo'lmasin ermak.

Bolalarni jonim deb suying,
Vijdonim ham sha'nim deb suying.
Yorqin kelajakdan deb umid,
Sizlar bolajonim deb suying.

**BIZLARGA BAXT
TILAGAN**

Tongda suyub uyg'otgan,
Choy tayyorlab, non yopgan,
Shodlik urug'in ekan,
Bu onamdir, bu onam.

Oq yuvib, oq taragan,
Ukamlarga qaragan,
Bizlarga baxt tilagan,
Bu onamdir, bu onam.

«Besh» olsak «besh» olganday,
Sho'xlik qilsak tolganday,
Sog' bo'lsak boy bo'lganday,
Bu onamdir, bu onam.

Nurbek BOBOBEKOV,
Samarqand shahridagi 29-umum-
ta'lim maktabining 2-«J» sinf
o'quvchisi

**ORZUYIM
QUSHDAY
YELAR**

Aql o'zi belgilar,
Nima ortiq, nima kam.
Matematika fani,
Menga yoqar juda ham.

Go'yo nurdan iborat,
Hatto olgan nafasim.
Xorazmiy bobomga,
Kelar juda havasim.

Misollarni yechishda,
O'y ustiga o'y kelar.
Osmon bo'yab to'xtamay,
Orzuyim qushday yelar.

Hisob-kitob bog'ida,
Gul-chechaklar teraman.
Shu sababli kitobga,
Dil mehrimni beraman.

Durdona ABDUQAHHOROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU akademik
litseyi o'quvchisi

– Mendan ko'pincha: «A'lo baholarga o'qiyasan, katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?» deb so'rashadi. Men, shifokor, deya javob beraman. Zo'r shifokor bo'lib, barcha kasal bolalarni davolasam, deymen.

Oiladagi farzandlarning eng kattasiman. Shu bois, ukalarim Salohiddin va Asliddinga ertaklar o'qib berishni yaxshi ko'raman. Maktabimizda



shirgan sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning she'riy kitobidan she'rlar yod olyapman. Dilshod aka menga shifokor bo'lish uchun ham ko'p kitob o'qishim kerakligini aytdilar. Shuningdek, ular bolalar nashrlarini o'qib borishimizni ham maslahat berishdi. Tadbir yakunida uning tashkilotchisi – maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mahmuda opa Sayfiddinovaga «Tong

DO'STLAR ORTTIRSAK DEYMIZ

kitobxonlikka bag'ishlangan ko'plab tadbirlar, tanlovlar o'tkaziladi. Yaqinda ta'lim muassasimizga bolalar shoiri va adibi Muhabbat Hamidova hamda Dilshod Rajab tashrif buyurib, kitoblar sovg'a qilishdi.

Men «Qarg'a qaqimchi», «Mulla baqaloq», «Bolaligim ertaklari» nomli kitoblarni o'qib chiqdim. Ayni paytda Dilshod aka menga top-

yulduzi» gazetasiga obuna bo'lish niyatida ekanligimizni bildirdik. Biz gazeta orqali respublikadagi tengdoshlarimning yutuqlari, ijod namunalari bilan tanishib borishni, do'stlarimiz safini kengaytirishni istaymiz.

Soliha AZIMOVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy tu-
manidagi 26-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida tashkil etilgan tadbir ana shunday nomlandi. Unda Dilfuza Oripova rahbarlik qilayotgan 3-«B» sinf o'quvchilari Vatanga mu-

**«YAGONAMSAN,
JONAJON VATANIM!»**

Turdiyeva hamda olim Laziz Yunusovlar maktab kutubxonasiga badiiy kitoblar sovg'a qilishdi.
Mahmuda VALIYEVA

habbat, sadoqat tuyg'ularini ifodalovchi she'rlaridan yod aytishdi. Uchrashuv mehmoni shoir Kavsar Turdiyeva she'rlarini berilib tinglashdi. Ayniqsa, shoiraning savol-javob tarzidagi she'rlarining ifodali o'qib berilishi barchaga manzur bo'ldi. O'quvchilar tomonidan qo'shiq va raqslar ijro etildi. Tadbir yakunida shoir Kavsar



Shohista Sobirova poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabida ta'lim oladi. Kuni kecha uning «Sadoqat kuychisi – Zulfiyaxonim» nomli ilk she'riy kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

BARAKALLA, «QALQON»!

Bayramona bezatilgan maktab hovlisida o'quvchilar saf tortishdi. G'oliblarni rag'batlantirish uchun sovg'a-salomlar ham hozirlab qo'yildi. Nihoyat, jo'shqin musiqa sadolari ostida jamoa bayrog'ini hilpiratganicha bir guruh o'quvchilar davraga kirib kela boshlashdi. Ularni yig'ilganlar uzoq olqishlab turishdi. Faxr va iftixor tuyg'usi yuz-ko'zlaridan balqib turgan g'olib o'quvchilar kayfiyatidagi ko'tarinkilik zumda davraga ham ko'chdi.



Qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan «Yosh qutqaruvchilar» respublika ko'rik-tanlovining Samarqand viloyati tumanlararo bosqichida 1-o'rinni egallagan 17-umumta'lim maktabining «Qalqon» jamoasini maktabdoshlari ana shunday tantanavor tarzda kutib olishdi. Boburjon Ergashev boshchiligidagi 8 nafar o'quvchidan iborat jamoa a'zolari tanlovda ishtirok etayotgan barcha tengdoshlaridan chaqqonroq, abjirroq ekanliklarini namoyish etib, tanlovning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritib qaytdi.

Tadbirida so'zga chiqqan maktab direktori Z.Yo'ldosheva yosh qutqaruvchilarni tabriklar ekan, ularga keyingi bosqichda ham omad yor bo'lishini tiladi. Maktab yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Gulhoya Rahimova hamda chaqiriqqacha o'quvchilarni tayyorlash fani o'qituvchisi Shavkat Rahmonov boshchiligidagi navbatdagi bellashuvlarga allaqachon tayyorgarlikni boshlab yuborgan jamoa a'zolari davraga yig'ilganlar oldida maktab sharafani munosib himoya qilishga so'z berishdi.

O. TURSUNBOYEVA

SHAXDAM QADAMLAR SEHRI

Hademay o'quvchilar o'quv yilini yakunlab, yozgi ta'tilga chiqishadi. Bitiruvchilar «Xayr, maktab!» tadbirlariga tayyorgarlikni allaqachon boshlab yuborishgan.



Qancha e'tirozlarga, taqiqlarga qaramay, respublikamizning ayrim hududlarida Bitiruv oqshomlarini o'tkazish hali-hanuz davom etmoqda. Kecha uchun oilaning moddiy ahvoriga qaramay, dababali tayyorgarlik ko'rish odatiy holga aylanib qolgan. Tahlillar

shuni ko'rsatadiki, o'tgan yillar mobaynida yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning asosiy qismi o'qituvchilar yoki ota-onalarning nazoratisiz o'tkazilgan ana shunday kechalarda sodir etilgan ekan. Joriy yilning 1–2-may kunlari Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi 2-, 4-, 7-, 27-, 28-, 45- umumta'lim maktablari 9–11-sinf o'quvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga, o'zaro munosabatlarda mehr-oqibatni kuchaytirishga, yoshlarni sport to'garaklariga keng jalb etishga hamda har bir yurt o'g'loni zimmasida Vatan osoyishtaligi yo'lida harbiy xizmatni o'tash mas'uliyati borligini anglatishga bag'ishlandi.

Tadбир davomida «Shaxdam qadamlar sehri» kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Kechaga tashrif buyurgan to'plam muallifi, harbiy Sherzod Hikmatov kitobdan o'r in olgan «Kel, Vatanni asraylik!», «O'zga yurtidan baxt izlama», «Assalomu alaykum», «Fidosi bo'l shu yurtning», «Kitob – ma'rifat bulog'i» kabi hikoyalar o'zining boshidan kechirgan hayotiy voqealar asosida yozilgan, harbiy faoliyati davomidagi qiziqarli, ibratli sarguzashtlari haqida o'quvchilarga so'zlab berdi. Shuningdek, bitiruvchi o'g'il-qizlarning kasb tanlashda ota-onalari va ustozlari bilan maslahatlashgan holda qaror qabul qilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, tuman XTB mudiri o'rinbosari Nigora Nabiyeva so'zga chiqib, o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish uchun maktabda, qolaversa, oilada sog'lom muhit shakllanishiga erishish, o'quv yili davomida huquqbuzarliklar sodir etmagan sinflarning rahbari, sardorlarini rag'batlantirib borish muhimligi xususida to'xtalib o'tdi.

Tadбир yakunida faol o'quvchilar «Shaxdam qadamlar sehri» kitobi bilan taqdirlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV

13-may 2019

SPORTSEVAR OILA YUTUG'I

Sport ko'plab tengdoshlari kabi 6-«A» sinf o'quvchimiz Sherzodbek Mahamadaliyevning ham jon-u dili. Bo'sh vaqt topdi deguncha, stadionga chopadi. Ba'zida hayallab qolsa, onasi Irodaxon uning qayerda ekanligini yaxshi biladi.

O'zi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi emasmi, sportning yosh avlod kamolotida tutgan o'rni beqiyosligini bilgani uchun ham o'g'lining qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi.



Yaqinda Sherzodbekka yana bir imkoniyat tug'ildi. U bir necha o'rtoqlari bilan dadasi – jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Ilhomjon Matkarimov Yurtboshimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan beshta muhim tashabbus asosida tashkil etgan futbol to'garagiga a'zo bo'ldi. Tinimsiz mashqlar tufayli bu bolalar sport musobaqalari va tanlovlarda munosib o'rinlarni qo'lga kiritib kelishmoqda.

O'zbekiston Kasaba uyushmasi Federatsiyasi tomonidan Respublikamizdagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda oilaviy sport musobaqalarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Bu sportsevar oila «Sport – mustahkam oilamiz poydevori» nomli spartakiadada qatnashdilar. Ishtirokchi oilalar sportning oltita turi bo'yicha bellashdilar. Barcha shartlardan muvaffaqiyatli o'tgan 19-umumta'lim maktabi jamoasi Matkarimovlar oilasi Rishton tumani g'olibi bo'ldi.

Obidjon XUDOYQULOV,

Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 19-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

YOSHLAR YETAKCHISI — MEHMONIMIZ



Maktabimizda yetakchi-yu sardor o'quvchilar talaygina. Bu iste'dod egalari, kuni kelib, O'zbekiston yoshlar ittifoqining ham faol sardorlariga aylanishlarini juda istayman.



Shu maqsadda yaqinda Krasnogorsk shahrida joylashgan ta'lim maskanida Toshkent shahar yoshlar ittifoqi raisi Akmal Jumaboyev bilan uchrashuv o'tkazildi. Mehmon o'zi olib kelgan 50 dan ortiq kitoblarni o'quvchilarga sovg'a qilar ekan, ilmi insongina yetakchi bo'lishi mumkinligini ta'kidladi. Bunga javoban 10-«B» sinf o'quvchisi Abdulloh O'ljaboyev kelajakda o'zi sevgan tashkilot – O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini yanada rivojlantirishga hissa qo'shish niyatida ekanini bildirdi. Uning sinfdoshi Ilhom Sobirov esa qaysi kasb egasi bo'lishdan qat'iy nazar, bugun ularga tuhfa qilingan Kaykovusning «Qobusnoma» asari, Tohir Malik, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad kabi yozuvchilarimizning betakror romanlari kelajakda unga, albatta, asqotishini aytib o'tdi. Bu kitoblarni birinchilardan bo'lib o'qib chiqishga va'da berib, mehmonga minnatdorchilik bildirdi.

Maftuna MURODOVA,


Toshkent viloyati, Angren shahridagi 46-umumta'lim maktabi yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi



Buxoro viloyati, Buxoro tuman O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman sardori, 20-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi **Jasmina JO'RAYEVA** ijodidan namunalar

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«QANOTLI DO'STLARIMIZ» KROSSVORDI



Javoblarni eniga yo'nalishida yozing.

1. Chumchuqsimon mitti sayroqi qush.
2. Bog'lar, to'qay va tog'lardagi o'rmonlarda yashovchi, xalqimizda hakka ham deb nom olgan, qish faslida ko'chib yuruvchi qush.
3. Soni kamayib borayotgan sayroqi mitti qush.
4. To'rqovoqda boqiladigan sayroqi qush.
5. Tog'liklarda yashovchi ovlanadigan va sayroqi qush sifatida xonadonlarda boqiladigan parranda.
6. Ko'klam elchisi, qanoti ingichka va uzun, juda tezuchar qush.
7. Xonadonlarga yaqin joylarda yashovchi beozor o'troq qush.
8. Turfa rang patli xonaki yoki yovvoyi qush.
9. Tustovuq nomini ham olgan ko'rkam patli, to'qayzorlarda yashovchi ovlanadigan qush.
10. Oyog'i, bo'yni, tumshug'i uzun, boshida toji bor, respublikamizdan kuzda uchib ketuvchi ko'chmanchi qush.
11. Odatda xonadonlarga yaqin joylarda yashovchi hasharot va don bilan oziqlanadigan mitti qush.
12. Qarchig'aysimonlar oilasiga kiruvchi katta yirtqich ovchi qushi.
13. Muzlamaydigan suv havzalarida qishlovchi, suv osimliklari, hasharotlar bilan oziqlanuvchi go'shti mazali qush.
14. Baliqlar bilan oziqlanuvchi, ko'llarda yashovchi yovvoyi qush.
15. Boqiladigan, sovuqqa chidamli suv parrandasi.
16. O'zbekistonda qishlaydigan, patlari timqora ko'chmanchi qush.
17. Ovchilar qo'lga o'rgatib, parranda ovlaydigan, chaqqon harakatlanuvchi yirtqich qush.

Tuzuvchi: Farhodbek TOSHPOLATOV, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 62-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

Pazanda qizga!



Aziz kichik bekalar!
Ayni damda bozor rastalarida turli sabzavot-u

mevalarning xilma-xil turlarini uchratishingiz mumkin. Ularning orasida qovoqchani ham uchratgan bo'lsangiz kerak? Ushbu sabzavot foydali tomonlari bilan boshqalaridan hecham qolishmaydi.

QOVOQCHADAN ANTIQA TAOM

Buning uchun bizga: 1 kg qovoqcha (kabachok), 300 gramm tovuq go'shti, 3 dona tuxum, 6-7 oshqoshiq un, tuz va murch (ta'bgaga ko'ra), 200 gramm mayonez, 3-4 dona sarimsoqpiyoz bo'lafi, 2-3 dona pomidor, yarim bog' shivit.

Tayyorlanishi: qovoqchalarni qirg'ichdan chiqaramiz va tuz aralashtirib, 15 daqiqa turgach, suvini siqib, chuqur idishga solamiz. Keyin tovuq go'shti qiymasi, tuxum va un, tuz, murchni solib, yaxshilab aralashtiramiz. So'ngra, masalliqni teng to'rtga bo'lamiz. Uni astalik bilan qizdirilgan tovaga solib, xuddi quymoqdagidek ikki tomonini qizartirib pishiramiz.

Alohida idishga mayonez va sarimsoqpiyozni aralashtirib, tayyor bo'lgan qovoqchali quymoqlar orasiga suramiz va yupqa kesilgan pomidorlarni ham terib, ko'kat sepgach, ustma-ust taxlaymiz. So'ngra, 15 daqiqa muzlatgichga qo'yamiz.

Ana endi qovoqchali quymoqlarni kesib, dasturxonga tortsanshiz bo'ladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruz JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 14199
Buyurtma - V 3404

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08